

O'QITUVCHI: ZAXIRIDDIN JUMANAZAROV

ALOQA UCHUN:

TEL: +99890-521-60-22

Telegram lichka: @jumanazarovzaxiriddin

Telegram kanalimiz: @METODIK_TOMCHI

Mavzu: Pedagogik qobiliyat.

A. Xoliqov darsligidan

Qobiliyat nomi	Tavsifi
Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati	O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.
Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati	O'qituvchi sergakligi tufayli o'quvchilarning ruhiyatini va ichki dunyosini ko'ra oladi , ularning qobiliyatlarini oldindan bashorat qiladi.
Eshitish va his qilish qobiliyati	Musiqani sevish, ohangni yaxshi his qilish, proza va poeziyani ta'sirli o'qish , eshitgan narsalarni xotirada saqlash qobiliyatidir.
Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat	Harakatlarni muvofiqlashtirish, harakat ohangini his qilish , vaqtni harakat sur'ati bilan his qilish, qulayliklar yaratish va hayot marhamatlaridan zavqlanish qobiliyati.
Mantiqiy qobiliyat	Falsafiy mulohaza yuritish, raqamlar va matematikani tushunish, murakkab masalalarni hal qilish, sababiyat va oqibatni tahlil qilish qobiliyati.
Shaxsning ichki qobiliyati	O'zini mukammal bilish, tushunish va his qilish, mustahkam iroda va qat'iyatga ega bo'lish , har qanday vaziyatda o'z fikrini erkin bayon eta olish qobiliyati.

Qobiliyat turi	Ta'rif
Kommunikativ qobiliyat	Pedagogik jamoa, ota-onalar va mahalla ahli bilan muloqotda ruhiy holatlarni tushunish va ularga hamdard bo'lish.
Perseptiv qobiliyat	Tashqi olamni sezish , idrok etish, kuzatuvchanlik . Shuningdek, o'quvchining <i>psixologiyasini idrok etish</i> .
Empatik qobiliyat	O'quvchilarning his-tuyg'ularini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish , idrok etish.
Ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish qobiliyati	O'qituvchi bilimni o'quvchining ongi va tafakkuriga yetkazish, maqsadga erishish uchun kam kuch sarflash .
Didaktik qobiliyat	O'quvchilarga samarali dars berish , pedagogikaning qonuniyatlari va metodlarini chuqur o'zlashtirish.
Tashkilotchilik qobiliyati	Sinf o'quvchilarini jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qilish, faoliyatni ta'minlash.
Konstruktiv qobiliyat	O'quv-tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirish va pedagogik vaziyatlarni oldindan ko'ra olish .
Bilish qobiliyati	O'z fanini chuqur o'zlashtirish va amaliyotda namoyon etish.
Anglash (tushunish) qobiliyati	Voqea va hodisalarni chuqur idrok etish , ularga adolatli munosabatda bo'lish.

Qobiliyat turi	Ta'rif
Didaktik qobiliyatlar	O'quv materiallarini aniq, ravshan tushuntirish , talabalarada fanlarga qiziqishni uyg'otish.
Akademik qobiliyatlar	Fanlar asoslarini o'zlashtirishga imkon beradigan qobiliyat.
Perseptiv qobiliyatlar	Shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik , holatlarni tushuna olish.
Nutq qobiliyati	His-tuyg'ularni nutq, mimika, pantomimika orqali aniq ifodalash.
Tashkilotchilik qobiliyati	Talabalar jamoasini uyushtira bilish, jamoani jipslashtira olish, faoliyatni to'g'ri tashkil etish.
Avtoritar qobiliyat	Talabalarga hissiy-irodaviy ta'sir etish orqali obro' qozonish .
Kommunikativ qobiliyat	Talabalar bilan samarali muloqot qilish , pedagogik aloqani bog'lash.
Pedagogik hayol	O'z xatti-harakatlari natijalarini oldindan ko'ra olish .
Diqqatni taqsimlay olish	Bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha jarayonga qaratish.

Perseptiv-pedagogik qobiliyat turlari

1. Pedagogik **ziyraklik**

Talabalar ruhiy holatlarini, dars, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga bo'lgan ishtiyoqlarini to'g'ri baholash, ularning o'zaro yoki pedagoglar bilan ziddiyatlarini anglash, talaba va jamoaga ta'sir ko'rsatishda qulay vaziyatini tanlay bilish

2. Pedagogik **empatiya** (hamdardlik)

Talabalarining **ichki holatini**, o'y-fikrlarini va his-tuyg'ularini tushuna olish; boshqalarning boshiga tushgan kulfat, falokatlardan qayg'urish; rollarni qabul qilish – og'ir vaziyatda bo'lgan kishilarning o'rniga o'zini tasavvur, mushohada yordamida qo'yib ko'rgan holda ulardagi ijobiy his-tuyg'ularini qayta tiklashga ko'maklashish; o'zgalarining qayg'u-alamlaridan, kulfatlaridan qayg'urish, ko'ngilni ko'taruvchi, taskin beruvchi so'zlar bilan og'ir vaziyatda qolgan talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish

3. Pedagogik **intuitsiya**

Intuitsiya (lot. "intueri" – sinchiklab, diqqat bilan qarash) – pedagog tomonidan pedagogik **voqea-hodisani mohiyatini**, talaba xatti-harakatlari mazmunini tasavvur, empatiya va orttirilgan tajriba asosida his-tuyg'u, sezgi yordamida, ziyraklik bilan mantiqiy dalillarsiz **anglash**

Konstruktiv qobiliyat – mutaxassis sifatida o'qituvchilarda namoyon bo'lib, o'quv mashg'ulotlari yoki tarbiyaviy tadbirlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirish, yakuniy natijalarni qo'lga kiritishga imkon beruvchi **samarali yo'l va vositalarni topishga imkon beradigan** individual psixologik xususiyat

Anglash qobiliyati – ta’lim va tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari, o’quvchilarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, ta’lim ishtirokchilari o’rtasidagi munosabat mazmuni, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish shartlari hamda **kutiladigan natijalarni anglashga** imkon beradigan o’qituvchilarga xos individual psixologik xususiyat

Mahoratli o’qituvchilarda quyidagi **noyob qobiliyatlar** ham kuzga tashlanadi:

- **bir vaqtning o’zida bir necha faoliyatni bajara olish** (m: eshitish, ko’rish, o’qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);
- **atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish** (m: bir o’quvchining ma’ruzasini eshitgani holda, sinfdagi boshqa o’quvchilarning faoliyatlarini kuzata olish);
- **o’ta qiziquvchanlik** (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ahamiyatsiz bo’lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko’p savollarga javob topishga intilish);
- **miya faoliyatining biokimyoviy va elektr faolligi** (miya to’xtovsiz faoliyat ko’rsatadi, nihoyatda kam vaqt “dam oladi”, bilish jarayonida noaniqliklar kuzga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi);
- **kam uxlash xususiyatiga egalik;**
- **nutq va fantaziyaning boyligi;**
- **kuchli xotira** (yirik hajmdagi matnni, m: dostonlarni bir marta o’qish bilan to’lig’iga yodlab olish, uni so’zma-so’z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik

Qobiliyat, ko’nikma va malaka

- **Ko’nikma** – o’qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan **tajriba va bilimlarga asoslangan ish usuli**.
- **Malaka** – ongli faoliyat natijasida **avtomatlashtirilgan** kasbiy intellektual harakatlar yig’indisi.
- **Qobiliyat + ko’nikma + malaka** → **pedagogik mahorat**: faqat qobiliyat yetarli emas, yuqori yutuqlarga erishish uchun ko’nikma va malakalar ham zarur.
- **Mohirlik** – ko’nikma va malakalarning **umumlashgan** shakli bo’lib, qobiliyatning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Qobiliyatning rivojlanish bosqichlari

- **Tug’ma qobiliyatlar** – **zehn** deb ataladi.
- **Iqtidor, iste’dod va daholik** – insonning ijodiy faoliyatida qobiliyat rivojlanishining turli bosqichlari.
- **Ijodkorlik** – o’qituvchining kasbiy faoliyatida **yangi, original va takrorlanmas yangilik yaratish qobiliyatidir**.
- **Pedagogikada qobiliyat** – bu imkoniyat, lekin u amaliyotda takomillashib borishi zarur.

Ijodkorlik va uning turlari

- **Mahsuldor** ijodkorlik – har qanday **muammoni muvaffaqiyatli hal qilish** va ijod qilish qobiliyatiga ega bo’lgan o’qituvchilarning asosiy jihati=MMM

- **Evristik** ijodkorlik – kasbiy **yangiliklarni** tez **o‘zlashtirish** va targ‘ib qilish, ularning ishonchliligini tekshirish va dadil harakat qilish qobiliyati.
- **Kreativ** ijodkorlik – ijtimoiy ahamiyatga ega **yangi nazariyalarni yaratish**, yangi fikr va takliflar ilgari surish; bunga faqat mohir va tajribali o‘qituvchilar erisha oladi.

Qobiliyat va layoqat

- **Layoqat** nishonalari – keyinchalik rivojlanib **qobiliyatga** aylanadigan tabiiy imkoniyatlar majmui.
 - **Iste’dod** – layoqat nishonalarining to‘liq shakllangan va rivojlangan holati.
 - **Ijodkor o‘qituvchi** yangi g‘oyalar yaratib, yangiliklarni tez qabul qiladi va uni targ‘ib qila oladi.
- Layoqat** qobiliyatning boshlang‘ich shakli bo‘lib, rivojlangan holda iste’dodga aylanadi.
- ◆ **Intellekt** – insonning **bilish** va **layoqat** nishonalari jarayonlarining yig‘indisi bo‘lib, uning **iste’dodining** yuksak **cho‘qqisini** belgilaydi.
 - ◆ *intellekt – bu aqlan ish ko‘rish, fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning **global qobiliyati**.*
 - ◆ **Intellektning asosiy jihati** – insonning atrof-muhitga to‘liq moslasha olish qobiliyatidir.

Savol	Javob
Chuqur idrok etish nima?	Narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqur kira bilish , sababini tushunish, ilmiy tafakkurga ega bo‘lish
Originallik nima?	Yangi ilmiy g‘oyalarni yaratishga bo‘lgan intilish
Tezlik nima?	Muammolarni hal qilish tezligi , kasbga oid g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati
Tirishqoqlik nima?	Doimo o‘rganilayotgan muammolarni eng yaxshi yechimini topish ehtiyoji
Aqliy teranlik nima?	Muammolarni boshqa hodisalar bilan o‘zaro aloqadorlikda idrok etish qobiliyati
Epchillik nima?	Bir g‘oyadan boshqasiga, shu jumladan, o‘zinkiga qarama-qarshi bo‘lgan g‘oyaga o‘ta olish qobiliyati
Qaysi ijodkorlik turida o‘qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi nazariyalarni yaratadi ?	Kreativ
Jamiyatdagi kasbiy yangiliklarni targ‘ib qilish qaysi ijodkorlik turiga xos?	Evristik
Qaysi ijodkorlik turida har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi?	Mahsuldor

Insonning kasbiy bilim va ko'nikmalarni mukammal egallashi nima deb ataladi?	Iqtidor
Pedagogik qobiliyatlar qaysi turlarga bo'linadi?	Umumiy va maxsus
Biror faoliyatni mukammal bajarishni ta'minlovchi noyob qobiliyatlar birikmasi nima?	Talant
Umumiy qobiliyatlarga ega o'qituvchi qanday bo'ladi?	Kasbiy faoliyatni mukammal egallaydi va har qanday qiyinchiliklarni bartaraf etadi
Maxsus qobiliyatga ega o'qituvchi qanday bo'ladi?	Faqat o'z kasbiy yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritadi
Insonning ma'lum faoliyat talablariga javob beruvchi individual xususiyati nima deb ataladi?	Qobiliyat
Qobiliyatlarni rivojlantirishning eng yuqori cho'qqisi nima?	Talant
Pedagogik qobiliyatning umumiy funksiyasiga kiradigan jihatlar nimalar?	Aqliy faollik, tanqidiylik, tizimiylik, tahlil qilish, sintezlash, e'tiborlilik
Pedagogik qobiliyatning maxsus funksiyasiga kiradigan jihatlar nimalar?	Tashkilotchilik, injener-texnik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqaviy
Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatleri nimalar?	Kasbga muhabbat, mutaxassislikni mukammal bilish, pedagogik takt, ijodiy yondashish, javobgarlikni his etish
Qobiliyatlar tizimi qanday xususiyatlarga ega?	Asosiy, tayanch, yetakchi, yordamchi
Kommunikativ qobiliyat nima?	O'qituvchining ota-onalar va jamiyat bilan samarali muloqot qilish qobiliyati
Perseptiv qobiliyat nima?	Tashqi olamni sezish va idrok etish , o'quvchilarning psixologik holatini tushunish qobiliyati
Empatik qobiliyat nima?	O'quvchilarning his-tuyg'ularini qalbdan his qilish va tushunish qobiliyati
Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati nima?	O'qituvchining bilimni o'quvchilarga eng samarali usulda yetkazish qobiliyati
Didaktik qobiliyat nima?	Darsni samarali tashkil etish va ta'lim qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirish qobiliyati
Tashkilotchilik qobiliyati nima?	O'quvchilarni turli jamoat ishlariga jalb qilish va faoliyatini tashkil etish qobiliyati
Konstruktiv qobiliyat nima?	Pedagogik vaziyatlarni oldindan ko'ra olish va puxta rejalashtirish qobiliyati

Bilish qobiliyati nima?	O'qituvchining o'z fanini chuqur bilishi va amaliyotda namoyon etishi
Anglash (tushunish) qobiliyati nima?	Hodisalarni chuqur idrok etish va adolatli baholash qobiliyati

1. Chuqur idrok etish nimani anglatadi?

- A) Muammolarni hal qilish tezligi
- B) Yangi ilmiy g'oyalarni yaratish qobiliyati
- C) **Narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqur kira bilish**
- D) Boshqa g'oyalarga oson moslasha olish

2. O'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratishda qaysi ijodkorlik turi namoyon bo'ladi?

- A) Evristik
- B) **Kreativ**
- C) Mahsuldor
- D) Iqtidor

3. Kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni targ'ib qilish qaysi ijodkorlik turiga xos?

- A) **Evristik**
- B) Mahsuldor
- C) Kreativ
- D) Iqtidor

4. Har qanday muammoni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati qaysi ijodkorlik turiga tegishli?

- A) Kreativ
- B) **Mahsuldor**
- C) Evristik
- D) Iqtidor

5. Insonning kasbiy bilim va ko'nikmalarni mukammal egallash qobiliyati qanday nomlanadi?

- A) **Iqtidor**
- B) Talant
- C) Qobiliyat
- D) Fikr teranligi

6. Umumiy pedagogik qobiliyatlarga qaysi jihatlar kiradi?

- A) **Aqliy faollik, tanqidiylik, tizimiylik**
- B) Musiqaviylik, badiiylik, matematik qobiliyat
- C) O'quvchilarga darsni tushuntirish
- D) Yangi innovatsiyalarni yaratish

7. Maxsus pedagogik qobiliyatlarga qaysi jihatlar kiradi?

- A) **Tashkilotchilik, injener-texnik, loyihalashtirish**
- B) Diqqatni jamlash, tahlil qilish, sintezlash
- C) Tarbiyaviy bilimlarni egallaganlik
- D) Muloqotda madaniyatli bo'lish

8. O'qituvchining pedagogik jamoa, ota-onalar va mahalla ahli bilan muloqot qilish qobiliyati nima deb ataladi?

- A) Perseptiv qobiliyat
- B) Empatik qobiliyat
- C) **Kommunikativ qobiliyat**
- D) Didaktik qobiliyat

9. O'qituvchining o'quvchining psixologik holatini tushunib, sinf jamoasining holatiga adolatli baho berishi qaysi qobiliyatga kiradi?

- A) Empatik qobiliyat
- B) **Perseptiv qobiliyat**
- C) Kommunikativ qobiliyat
- D) Konstruktiv qobiliyat

10. O'qituvchining darsni samarali va ta'lim qonuniyatlariga asoslangan holda o'tish qobiliyati nima deb ataladi?

- A) Tashkilotchilik qobiliyati
- B) **Didaktik qobiliyat**
- C) Konstruktiv qobiliyat
- D) Kommunikativ qobiliyat

Ma'lumotlardan foydalanganda muallif nomi ko'rsatilishi shart.

Muallif: Zaxiriddin Jumanazarov

Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va otalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida, ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishida pok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muhabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining o'quv-tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko'ra olishi.

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligi va uddaburonligi, voqea va hodisalarni chuqur idrok etib, ularga adolatli munosabatda bo'lishi.

Pedagogik qobiliyatlarning tayanch xususiyatlari kuzatuvchanlik – ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu – individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilishi demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan

rao, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi.

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati. O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda **ijobiy ruhiy iqlim** yarata oladi.

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati. Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi **kim nimga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.**

52
www.ziyouz.com kutubxonasi


3. Eshitish va his qilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, **eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.**

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat. O'qituvchining **o'z xatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati**, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. Mantiqiy qobiliyat. Falsafiy **mulohazalar yuritishni, raqamlarni matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega**, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi;

6. Shaxsning ichki qobiliyati. O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukamma rivojlanadi, **irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr mulohazasini erkin bayon eta oladi.**

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyat past kishilarga qaraganda **ko'proq yutuqlarga erishadilar.**



8-расм. Педагогик қобилият турлари (В.А.Крутецкий)

Ma'lumotlardan foydalanganda muallif nomi ko'rsatilishi shart.

Muallif: Zaxiriddin Jumanazarov